2) N+suffix = Adj (ot yasovchi suffiksli yasama so‘z);
3) N+suffix= Adv (ot yasovchi suffiksli yasama so‘z);
4) N+V= V (ot va fe’lli so‘z birikma).

Yuqoridagi “kambag‘allik” tushunchasining simmetrik va asimmetrik strukturasidan ko‘rish mumkinki, biz ushbu leksemaning tilda turli lisoniy vositalar bilan ifodalanishini kuzatdik. Natijada lisoniy birliklar insonning ichki holati, psixologik qobiliyati, fiziologik ko‘rinishi va o‘zini tutishi, tilda sifat, ravish va ot kabi so‘z turkumlari bilan kelib, shaxsning xarakterini ochib berishi ma’lum bo‘ldi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tahlil davomida olingan natijalar asosida simmetrik va asimmetrik strukturalar hamda izohlar namoyishi “boylik va kambag‘allik” leksemasi komponentlarining barcha ma’nolarini tushuntirish imkonini yaratdi. Bizning tomonimizdan olingan konseptual belgilar, ularning o‘zaro aloqadorligi haqida ma’lumot, shuningdek, “boylik va kambag‘allik” semantikasining asimmetrik strukturasining qo‘llanilish chastotasini ko‘rsatdi. Bu, albatta, ushbu nutqda asimmetrik tushunchalarning ijro etilish xususiyatidir. Demak, ushbu nutqda simmetriya o‘z ifodasini topadi.

Tadqiqotga tortilgan “boylik va kambag‘allik”ning strukturaviy tavsifi bizga simmetrik va asimmetrik tushunchalarini ko‘rsatishda foydalaniladigan turli til vositalarini ma’lum tizimga (tartibga) keltirish imkonini berdi. Yuqoridagi “boylik va kambag‘allik” leksik birikmasining simmetrik va asimmetrik tahlili turli lisoniy birliklar bilan funksional-semantik jihatdan aniq struktura keltirib chiqarishi tasdiqlandi. Uning tarkibiy elementlari yadro tarkibiy qism semantik jihatdan oddiy bo‘lib, semantik maydonning umumiy ma'nosini o‘z ichiga olgan leksik birlik yoki bir nechta birliklardan iborat; markaz – yadroni o‘rab turgan bir qator qatlamlar semantik jihatdan murakkabroq qiymatga ega bo‘lgan leksik birliklardir; periferiya esa asosiy ma’nolari bilan boshqa turdagi semantik maydonlarga kiradigan va ushbu sohaning semantikasini ma’lum til birliklari orqali ifodalovchi ikkinchi darajali qismlardan tashkil topgan.

Xulosa qilib aytganda, ushbu yondashuvni qo‘llash va simmetrik hamda asimmetrik tahlilni o‘tkazish, tadqiqot ob’ektini kengaytirish va uni kelajakda qayta ishlash, bizning fikrimizcha, zamonaviy lingvistika metodologiyasini takomillashtirish, semantik va kognitiv yo‘nalishda o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Маковский М.М. Сравнительный словарь мифологической символики в индоевропейских языках. Образ мира и миры образов. М., “ФАИР-Пресс”, 2001, 291 с.

(2). Вейль Г. Симметрия. 2-е изд., М., Едиториал УРСС, 2003, с. 35–36.

(3). Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. Т., “Маънавият”, 2004.

(4). Hornby A.S. OXFORD Advanced Learner’s dictionary. sixth edition. Edited by Sally Wehmeier. OXFORD UNIVERSITY PRESS, 2000, p. 581, 582–583.

(5). Webster’s third international dictionary of the English language. Könemann, 1993.

(6). Аскольдов С.А. Концепт и слово. Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. М., 1997, с. 267–279.

(7). Кацнельсон С.Д. Категории языка и мышления: из научного наследия. М., Яз. славянской культуры, 2001, 864 с.

(8). Ш.Шокиров. Турли тизимли тилларда «кўз» лексик-семантик майдони ва уни ташкил этувчи тил бирликлари типологияси. Ф.ф.ф.док. афтореферат., Т., 2020.

(9). Shokirov Sh.I. Turli tizimli tillar persepsiyasida simmetrik va asimmetrik munosabat. F.f.dok. aftoref., T., 2026.

(10). John Galsworthy. Apple Tree and other stories [text]. M., изд-во лит. наиностр.яз., 1961.

(11). William Somerset Maugham. Cakes and Ale or the Skeleton in the Cupboard [text]. M., Менеджер, 2000.

Davranov Akmal Akramjonovich (Toshkent davlat Transport universiteti tayanch doktoranti)

DOSTON VA UTOPIYA MATNLARIDA TIL ORQALI JAMIYAT MODELLARI YARATISHNING LINGVISTIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada doston va utopiya matnlarida til orqali jamiyat modellari yaratishning lingvistik jihatlari tadqiq etiladi. Maqolada badiiy va utopik diskursning sotsiolingvistik, pragmatik hamda dialogik xususiyatlari asosida ideal va muqobil jamiyat tasavvurining qanday shakllanishi tahlil qilinadi. Matnlarda konseptual metaforalar, aksiologik birliklar, normativ baholash vositalari va nutq strategiyalari orqali ijtimoiy tuzumning lingvistik modellashtirilishi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *doston matni, utopiya, lingvistik modellashtirish, jamiyat modeli, diskurs, sotsiolingvistika, pragmatika, aksiologik maydon, dialogiklik, konseptual metafora.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОЗДАНИЯ МОДЕЛЕЙ ОБЩЕСТВА ЧЕРЕЗ ЯЗЫК В ЭПОСЕ И УТОПИЧЕСКИХ ТЕКСТАХ

Аннотация. *В данной статье исследуются лингвистические аспекты создания моделей общества через язык в эпических и утопических текстах. В исследовании анализируется формирование представления об идеальном и альтернативном обществе на основе социолингвистических, прагматических и диалогических особенностей художественного и утопического дискурса. Освещается лингвистическое моделирование социального устройства в текстах посредством концептуальных метафор, аксиологических единиц, нормативно-оценочных средств и речевых стратегий.*

Ключевые слова: *эпический текст, утопия, лингвистическое моделирование, модель общества, дискурс, социолингвистика, прагматика, аксиологическое поле, диалогичность, концептуальная метафора.*

LINGUISTIC ASPECTS OF CREATING SOCIETAL MODELS THROUGH LANGUAGE IN EPIC AND UTOPIAN TEXTS

Annotation. *This article examines the linguistic aspects of creating societal models through language in epic and utopian texts. The study analyzes how the representation of ideal and alternative societies is formed on the basis of the sociolinguistic, pragmatic, and dialogic features of artistic and utopian discourse. The linguistic modeling of the social system in the texts is elucidated through conceptual metaphors, axiological units, normative evaluative means, and speech strategies.*

Keywords: *epic text, utopia, linguistic modeling, societal model, discourse, sociolinguistics, pragmatics, axiological field, dialogicity, conceptual metaphor.*

Kirish. Zamonaviy lingvistika va adabiyotshunoslikda badiiy matnning ijtimoiy voqelikni aks ettirish va qayta qurishdagi roli dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Doston va utopiya janrlari ushbu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular nafaqat mavjud ijtimoiy munosabatlarni tasvirlaydi, balki ideal yoki muqobil jamiyat modelini til vositasida shakllantiradi. Dostonlarda tarixiy va mifologik asosdagi ijtimoiy qadriyatlar tizimi ifodalansa, utopik matnlarda kelajak konsepsiyasi asosida mukammal jamiyat konstruksiyasi yaratiladi. Til bu jarayonda oddiy kommunikativ vosita emas, balki semantik va pragmatik resurslar majmuyi sifatida jamiyatning aksiologik, normativ va institutsional tuzilmasini modellashtiruvchi omil hisoblanadi. Shu bois doston va utopiya matnlarida tilning ijtimoiy konstruktiv funksiyasini o‘rganish nazariy hamda amaliy jihatdan muhimdir.

Adabiyotlar tahlili. Doston va utopiya matnlarida til orqali jamiyat modellari yaratish masalasi zamonaviy gumanitar tadqiqotlarda ko‘p qirrali metodologik yondashuvlar asosida izchil o‘rganilmoqda. So‘nggi yillarda badiiy va utopik diskursni lingvistik tahlil qilish jarayonida tilning ontologik va aksiologik salohiyatiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Utopik tafakkurning lingvistik ifodasi san’at tili bilan bevosita bog‘liq ekani, estetik ideal hamda ijtimoiy konstruksiyaning verbal shakllanishi murakkab semiotik jarayon sifatida namoyon bo‘lishi qayd etiladi. Mazkur yondashuvda til nafaqat mavjud voqelikni aks ettiruvchi vosita, balki ideal ijtimoiy tuzumni modellashtiruvchi, me’yorlashtiruvchi va legitimlashtiruvchi semiotik tizim sifatida talqin etiladi [1]. Shunga ko‘ra, utopik matnlarda metaforik strukturalar, ramziy obrazlar, konseptual xaritalar va umumlashtiruvchi kategoriyalar jamiyatning muqobil modelini barpo etishda markaziy funksiyani bajaradi. Tilning nominativ va baholovchi resurslari orqali ijtimoiy tartib, qadriyatlar iyerarxiyasi hamda inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning ideal shakli konseptual jihatdan mustahkamlanadi.

Utopiyani tarixiy jarayonning istiqbolga yo‘naltirilgan diskursiv shakli sifatida talqin qiluvchi tadqiqotlarda jamiyat modeli til vositasida kelajak tasavvuri sifatida qurilishi, bunda narrativ strategiyalar, vaqt kategoriyasining semantik talqini hamda konseptual metaforalar muhim vosita vazifasini bajarishi ko‘rsatib o‘tiladi [2]. Utopik diskurs tarixiy tajribani tanqidiy qayta ko‘rib chiqish bilan birga, istiqboldagi ijtimoiy tuzumning normativ mezonlarini ham belgilaydi. Til birliklari orqali ijtimoiy ongda yangi aksiologik maydon shakllantirilib, unda adolat, tenglik, uyg‘unlik kabi kategoriyalar semantik markazga aylanadi. Shuningdek, utopik matnning lingvistik tuzilmasi semantik intensivlik, normativ baholash vositalari, umumlashtiruvchi nominatsiyalar va kategoriyalash jarayonlari orqali ideal jamiyat obrazini mustahkamlashi ilmiy asoslangan [3]. Bunday matnlarda tilning ekspressiv va emotsional komponentlari ham muhim o‘rin tutib, ijtimoiy modelning qabul qilinish darajasiga ta’sir ko‘rsatadi.

Badiiy matnning dialogik tabiati haqidagi nazariy qarashlar jamiyat modeli bir qatlamli va monologik emas, balki ko‘p ovozli nutqiy makon orqali shakllanishini asoslaydi [4]. Dialogiklik prinsipi asosida matnda turli ijtimoiy pozitsiyalar, mafkuraviy qarashlar va qadriyatlar tizimi o‘zaro munosabatga kirishadi. Natijada ideal yoki muqobil jamiyat tasavvuri qarama-qarshi nuqtai nazarlarning semantik to‘qnashuvi va uyg‘unligi orqali ko‘p qatlamli mazmunda ifodalanadi. Ushbu yondashuv doston va utopiya matnlarida til-

ning ijtimoiy differensiallashgan xususiyatlarini, ya'ni, turli ijtimoiy qatlamlarga xos nutqiy strategiyalar va leksik-semantik tanlovlarni aniqlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Jamiyatni sotsiolingvistik konstruksiya sifatida talqin qiluvchi ilmiy qarashlarda til ijtimoiy reallikni shakllantiruvchi, qayta ishlab chiqaruvchi va legitimlashtiruvchi mexanizm sifatida baholanadi. Ijtimoiy identitet, guruhiy mansublik, kollektiv xotira va qadriyatlar tizimi til birliklari orqali kodlanadi hamda diskursiv amaliyot jarayonida mustahkamlanadi [5]. Badiiy va utopik matnlarda esa ushbu jarayon estetik va konseptual jihatdan kuchaytirilgan shaklda namoyon bo'ladi. Sotsiolingvistik yondashuv til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarini tahlil qilish orqali matndagi ijtimoiy modelning lingvistik asoslarini, xususan leksik tanlov, stilistik qatlam va kommunikativ strategiyalar orqali ifodalangan ijtimoiy ierarxiyani aniqlash imkonini beradi [6].

Tilning pragmatik jihatlari ham jamiyat modelini yaratishda muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Nutq aktlari nazariyasi, implikatura, presuppozitsiya va kontekstual ma'no ko'rsatkichlari orqali matnda ijtimoiy rollar, me'yorlar va munosabatlar tizimi shakllanadi hamda normativ jihatdan mustahkamlanadi [7]. Pragmatik strategiyalar yordamida hokimiyat munosabatlari, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy me'yorlar bilvosita ifodalanadi. Tilning madaniyatlararo vositachilik funksiyasi esa doston va utopiya matnlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning integratsiyasini ta'minlaydi, natijada ideal jamiyat modeli madaniy muloqot maydonida qayta talqin qilinadi va universal mazmun kasb etadi [8].

Mavjud ilmiy adabiyotlarda utopik va badiiy matnlarda tilning jamiyatni modellashtiruvchi funksiyasi estetik, diskursiv, sotsiolingvistik hamda pragmatik nuqtai nazarlardan izchil tahlil qilingan. Biroq doston va utopiya matnlarini qiyosiy lingvistik asosda kompleks o'rganish, xususan, til vositalari orqali ijtimoiy idealning qurilishi, normativlashtirilishi va legitimlashtirilishi mexanizmlarini tizimli ravishda aniqlash masalasi yetarli darajada integrativ tadqiq etilmagan. Aynan shu jihat mazkur yo'nalishdagi izlanishlarning dolzarbligini belgilab, doston va utopiya diskursida jamiyat modelini yaratishning lingvistik mexanizmlarini chuqurroq ochib berishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot qiyosiy va kompleks yondashuv asosida olib borildi. Doston va utopiya matnlarining lingvistik xususiyatlarini aniqlashda diskursiv tahlil, semantik tahlil, pragmatik tahlil hamda sotsiolingvistik yondashuv usullaridan foydalanildi. Matnlardagi konseptual metaforalar, baholovchi birliklar, normativ ifodalar va dialogik strukturalar aniqlanib, ularning jamiyat modelini shakllantirishdagi funksiyasi o'rganildi. Shuningdek, matnning ichki semantik tizimi bilan ijtimoiy kontekst o'rtasidagi munosabat tahlil qilinib, til birliklarining ijtimoiy identitet va qadriyatlar tizimini ifodalashdagi o'rni belgilandi. Metodologik jihatdan integrativ yondashuv qo'llanilib, lingvistik va madaniy omillar uyg'unlikda ko'rib chiqildi.

Tahlil va natijalar. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, doston matnlarida jamiyat modeli ko'proq an'anaviy qadriyatlar, qahramonlik ideali va jamoaviy identitet asosida shakllanadi. Til vositalari orqali ijtimoiy rollar qat'iy belgilangan, iyerarxik munosabatlar normativ tusda ifodalangan bo'ladi. Epik tasvir vositalari, barqaror formulalar va baholovchi leksika jamiyatning axloqiy me'yorlarini mustahkamlovchi funksiyani bajaradi. Utopiya matnlarida esa jamiyat modeli kelajak konsepsiyasi asosida quriladi va unda til vositalari orqali mavjud ijtimoiy tizim tanqid qilinadi hamda muqobil model taklif etiladi. Konseptual metaforalar, umumlashtiruvchi kategoriyalar va normativ baholash birliklari ideal ijtimoiy tartibni ifodalashga xizmat qiladi. Diskursiv jihatdan utopik matnlar, ko'pincha,didaktik va normativ xarakter kasb etadi.

Har ikki janrda ham til jamiyatni nafaqat tasvirlaydi, balki uni normativ jihatdan belgilaydi va legitimlashtiradi. Dialogiklik unsurlari turli ijtimoiy pozitsiyalarni qarama-qarshi qo'yish orqali ideal modelning ustuvorligini ko'rsatadi. Pragmatik jihatdan esa nutq strategiyalari orqali ijtimoiy rollar, hokimiyat munosabatlari va qadriyatlar tizimi mustahkamlanadi.

Xulosa. Doston va utopiya matnlarida til jamiyat modelini yaratishda asosiy konstruktiv omil sifatida namoyon bo'ladi. Dostonlarda ijtimoiy ideal an'anaviy va tarixiy qadriyatlar asosida shakllansa, utopiya matnlarida u istiqbolga yo'naltirilgan muqobil tizim sifatida ifodalanadi. Har ikkala holatda ham til semantik, pragmatik va diskursiv resurslari orqali ijtimoiy tuzumni modellashtiradi, normativ me'yorlarni belgilaydi va aksiologik maydonni shakllantiradi. Tadqiqot natijalari badiiy va utopik diskursni lingvistik nuqtayi nazardan o'rganish jamiyat va til o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqalarni chuqurroq anglash imkonini berishini ko'rsatadi. Mazkur yo'nalishdagi izlanishlar janrlararo qiyosiy tadqiqotlarni kengaytirish va ijtimoiy modellashtirishning lingvistik mexanizmlarini yanada aniqlashtirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Ershova Natalia. "Language of Art as Language of Utopia". «Technology and language» (Технологии в инфосфере), vol. 1, № 1, 2020, p. 28–33.

(2). Paniotova T.S., Romanenko M.A. Utopia as the futurization of history: Discourse aspects. Čelovek, 2024, т. 35, №.4, p. 117–131.

(3). Philmus R.M. The language of Utopia. Studies in the Literary imagination. 1973, т. 6, №. 2, с. 61.
(4). Bakhtin M.M. The dialogic imagination: Four essays. University of texas Press, 2010, т. 1.
(5). Bogatyreva O. et al. Society as a socio-linguistic construction. European Proceedings of Social and Behavioural Sciences, 2021.
(5). Shodieva Maftunabonu Adizovna. "Sociolinguistics and understanding language in social contexts". Medicine, Pedagogy and Technology, Theory and Practice, vol. 3, № 1, Jan. 2025, pp. 353-6.
(6). Abduraxmonov S. «Tilning pragmatik jihati va uning so'z ma'nosiga ta'siri». "Молодые ученые", т. 3, вып. 14, май 2025, с. 25–27.
(7). Olimova D. «Til – xalqlararo do'stlik va madaniyat ko'prigi». Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, т. 4, вып, 10, май 2025, с. 35–37.

Raximova Tozagul Sobir qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti magistrant; raximovatozagul@gmail.com),
Quriyozov Elmurod Rajabboy o'g'li (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti v.v.b.; elmurod1202@gmail.com)

XORAZM SHEVASI VA O'ZBEK ADABIY TILI O'RTASIDA NEYRON MASHINAVIY TARJIMA MODELINI YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xorazm shevasi va o'zbek adabiy tili o'rtasida neyron mashinaviy tarjima modelini yaratish masalasi nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Hozirgi kungacha mazkur yo'nalishda amaliy model yoki to'liq shakllangan tadqiqot ishlari mavjud emasligi sababli, maqolada asosan konseptual yondashuvlar, muammolar va istiqbolli yechimlar muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Xorazm shevasi, o'zbek adabiy tili, neyron mashinaviy tarjima, dialektlar, nazariy tahlil.*

Рахимова Тозагул Собировна (магистрант Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни; raximovatozagul@gmail.com),
Қуриёзов Элмурод Ражаббоевич (и.о.доцента Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни; elmurod1202@gmail.com)

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СОЗДАНИЯ НЕЙРОННОЙ МАШИННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕВОДА МЕЖДУ ХОРЕЗМСКИМ ДИАЛЕКТОМ И УЗБЕКСКИМ ЛИТЕРАТУРНЫМ ЯЗЫКОМ

Аннотация. *В данной статье теоретически анализируется вопрос создания модели нейронного машинного перевода между хорезмским диалектом и узбекским литературным языком. Ввиду отсутствия на сегодняшний день практических моделей или полностью сформированных исследовательских работ в данном направлении, в статье в основном обсуждаются концептуальные подходы, проблемы и перспективные решения.*

Ключевые слова: *хорезмский диалект, узбекский литературный язык, нейронный машинный перевод, диалекты, теоретический анализ.*

Rakhimova Tozagul (Master's student of Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni; raximovatozagul@gmail.com),
Elmurod Kuriyozov (Acting associate professor at Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni; elmurod1202@gmail.com)

THEORETICAL BASIS AND PROSPECTS OF CREATING A NEURAL MACHINE TRANSLATION MODEL BETWEEN KHORESMIAN DIALECT AND UZBEK LITERARY LANGUAGE

Annotation. *This paper presents a theoretical analysis of developing a neural machine translation model between the Khorezm dialect and the Uzbek literary language. Since no prior practical implementtations or comprehensive studies exist in this specific area, the research focuses on conceptual frameworks, linguistic challenges, and potential solutions.*

Keywords: *Khorezm dialect, Uzbek literary language, neural machine translation, dialects, theoretical analysis.*

Kirish. So'nggi yillarda dunyo miqyosida sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish, ularni davlat boshqaruvi, ta'lim, fan va madaniyat sohalariga joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) va mashinaviy tarjima (Machine Translation–MT) texnologiyalari ko'p tillilikni ta'minlash, axborot almashinuvini tezlashtirish hamda milliy tillarni raqamli muhitga moslashtirishda muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda [1].

Ko'plab davlatlarda sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha milliy strategiyalar qabul qilinib, ular doirasida avtomatik tarjima tizimlarini yaratish va takomillashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bunday islohotlar nafaqat yirik xalqaro tillar, balki kam resursli tillar va dialektlarning raqamli